

MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR TARKIBIY

QISMLARI TAVSIFI: BOSHLANMA

Khamrayeva Zebiniso Khaydar qizi

Teacher of SamSIFL

Annotatsiya:Maqola ingliz tilshunosligida kam o'rganilgan matn nazariyasi muammosiga bag'ishlangan. Matnning asosiy birligi - murakkab sintaktik qurilma - batafsil o'rganilib chiqilgan. Ingliz nasri materiallariga asoslangan holda, murakkab sintaktik qurilmaning birinchi jumlasini ya'ni boshlanmaning o'ziga xos xususiyatlari va semantikasi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:Matn nazariyasi, murakkab sintaktik qurilma, prozaik strofa, superfrazalik birlik, paragraph, boshlanma.

Tilshunoslar izchil shakllantirilgan matndagi jummalarni o'rganishda ularni tematik va rasmiy darajada birlashtirishga asoslanishdi. Tilshunos olimlar bu birlikni ifodalash jarayonida turli yo'llar bilan yondashishlari uning xilma-xil nomlanishida namoyon bo'ladi: murakkab sintaktik butunlik, super-frazaik birliklar, prozaik strofa, periodlar, paragraflar, blok va boshqalar. Ingliz tilshunosligida yuqorida aytib o'tilgan til birligining yaxshi o'rganilmaganligi sababli, mazkur maqola uni tavsiflashda Murakkab sintaktik butunlining xususiyatlari, ularning tuzilmalarining o'ziga xosligi, murakkab sintaktik butunlikning tarkibiy qismlari orasidagi aloqa vositalarining turlari o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Murakkab sintaktik qurilmalar matnning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ularni har doim ham osonlik bilan aniqlab bo'lmaydi. Ba'zi hollarda u paragrafga to'g'ri keladi, boshqalarida esa - bir paragraf osongina bir nechta murakkab sintaktik qurilmaga bo'linadi. Murakkab sintaktik qurilmaning va paragrafning chegaralari ko'pincha xabarning mazmuniga va pragmatik mazmuniga qarab kesishadi.

L. M. Loseva murakkab sintaktik qurilmalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'tadi [3]:

1. Murakkab sintaktik qurilmalar matnning tarkibidagi eng katta sintaktik birlikni ifodalaydi;
2. Murakkab sintaktik qurilmalar - mavzu jihatdan, shuningdek, leksik, grammatik va intonatsion jihatdan birlashtirilgan mustaqil tuzilgan gaplar guruhi;
3. Murakkab sintaktik qurilmalar tasvirlangan hodisaning har qanday jihatini tavsiflaydi;
4. Murakkab sintaktik qurilmalardagi jumlar orasidagi bog'lanish kontaktli va masofali bo'lishi mumkin.

G.Ya.Solganikning fikricha, "prozaik strofa" (bizningcha, murakkab sintaktik qurilma) – alohida gapga nisbatan fikrning to'liq rivojlanishini ifodalovchi ma'no va sintaktik jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog'langan gaplar guruhi [6; 95b].

M.A.K. Halliday va K.Matzessen (M.A.K. Halliday and Christian Matthiessen) "Funksional grammatikaga kirish" kitobida qo'shma gaplarni murakkab sintaktik qurilma sifatida tavsiflash jarayonida jummalarni murakkab qo'shma gaplarga birlashtirishda ma'no yaqinligi inobatga olinishini ta'kidlashgan. Ular murakkab qo'shma gaplarga ham, huddi uning tarkibiy qismi sifatida qaralgan bo'laklar singari, ma'lum bir vaziyatni ifodalovchi butunlikning tarkibiy qismi sifatida qaraganlar [2].

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarda kelib chiqqan hplda biz murakkab sintaktik qurilma nutq bo'linadigan tarkibiy-semantik birliklarning eng kattasi sifatida qaralishi lozim. Murakkab sintaktik qurilmalarning tarkibiga kiritilgan jumlar qurilmada turgan o'rniga ko'ra turli xil vazifalarni bajaradi. Birinchi jumla eng katta mustaqillik bilan tavsiflanadi. Ba'zi tadqiqotchilar buni "boshlanma" (rus tilida "зачин") deb atashadi. Birinchi jumlada, odatda, fikr boshlangan momentni rasmiylashtirish uchun maxsus sintaktik vositalar qo'llaniladi. Undan keyingi jumla ko'p xollarda tuzilish va semantik-sintaktik jihatdan birinchisiga bog'liq. Birinchi jumla ko'pincha murakkab sintaktik qurilmaning tashkiliy sintaktik markazi hisoblanadi.

Har qanday nutq turida fikrning boshlanishini ifodalash, uni sintaktik vositalar yordamida rasmiylashtirish zarurati mavjuddir. Birinchi jumla murakkab sintaktik qurilmani boshlaydi va "yangi" xabarni o'z ichiga oladi, u oldingi, allaqachon ma'lum bo'lgan "berilgan" fikrga asoslanmaydi. Yangi fikrni kiritish, uni boshlash, birinchi jumla yoki "boshlanma" uning rivojlanishini va shu o'rinda keyingi taqdimot uchun ohangni belgilaydi.

Masalan: **The American wife stood at the window LOOKING OUT.** Outside right under their window a cat was crouched under one of the dripping green tables. The cat was trying to make herself so compact that she would not be dripped on (Ernest Hemingway "Cat in the rain") [1].

Ernest Hemingwayning "Cat in the rain" hikoyasidan olingan murakkab sintaktik qurilmani tahlil qiladigan bo'lsak, undagi birinchi gap, ya'ni boshlanma "**The American wife stood at the window looking out**" jumlasini butun murakkab sintaktik qurilmada keladigan ma'noni, ya'ni undan so'ng muallif tomonidan keltiriladigan ma'lumotlar oqimini (tashqarining tasvirini) belgilaydi, va shu o'rinda bizning "murakkab sintaktik qurilmaning boshlanmasi ko'pincha murakkab sintaktik qurilmaning tashkiliy sintaktik markazi hisoblanadi" degan fikrimizni asoslashga hizmat qiladi.

N.D.Zarubining ta'kidlashicha, "superfrazali birlikning birinchi jumlasini har doim mustaqil va mustahkam boshlanishga ega" [7]. Mustaqil va mustahkam boshlanishga ega bo'lgan jumla ushbu jumlaning mustaqilligiga soya soluvchi yoki uning kontekstga bog'liqligi ko'rsatuvchi jihatlari bo'lmasligi shart.

L. M. Loseva murakkab sintaktik qurilmalarni birinchi jumla quydagi xususiyatlarini alohida ta'kidlaydi [3]:

1. Ularda matnning oldingi qismida uning semantikasi aniqlanishi mumkin bo'lgan olmoshlar va vaqt, joy, maqsad, sabab, harakat usulini ko'rsatuvchi ravishlarning mavjud emasligi;
2. Ular odatda har qanday tuzilish tipidagi to'liq (mustaqil) gaplardir;
3. Murakkab sintaktik qurilmaning birinchi jumlasini undan oldingi murakkab sintaktik qurilmaning oxirgi jumlasini bilan juda ham kam jihatdan bog'liq;
4. Semantika nuqtai nazaridan murakkab sintaktik qurilmaning birinchi jumlasini yangi mikromavzu taqdimotini boshlashi bilan ajralib turadi.

Murakkab sintaktik qurilmaning birinchi jumlasini haqida aytilganlarning barchasi birinchi jumla sintaktik (ular matnda yangi sintaktik birlikni boshlaydi) va semantik-stilistik (murakkab sintaktik qurilmalarning asosiy g'oyasini ifodalaydi) funktsiyalarini bajaradi, degan xulosaga asos beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, asosiy jumla va sharh yoki bahsli qismlar ajratilmagan murakkab sintaktik qurilmalarda ham mavjud. Murakkab sintaktik qurilmaning birinchi jumla ko'pincha paragraftan boshlanadi, ular tarkibiy va semantik markaz hisoblanadi. Ba'zi hollarda murakkab

sintaktik qurilmalarda asosiy g'oya darhol, uning boshida yetkaziladi, so'ngra sharh ma'lumotlari beriladi, boshqalarida esa birinchi o'rinda fakt va dalillar keladi, so'ngra asosiy pozitsiya shakllanadi.

Masalan: The James Dillingham Youngs were very proud of **TWO THINGS WHICH THEY OWNED. ONE THING** was Jim's gold watch. It had once belonged to his father. And, long ago, it had belonged to his father's father. **THE OTHER THING** was Della's hair (O'Henry "The gift of the Magi") [5].

O'Henryning "The gift of the Magi" hikoyasidan olingan ushbu misolga nazar soladigan bo'lsak, unda murakkab sintaktik qurilmaning birinchi jumlasida asosiy g'oya (James Dillingham Youngslarning ular g'rurlanadigan ikkitagina qimmatbaho narslari borligi) darhol abzats boshida aytib o'tilgan bo'lib, undan keying jumalarda (ushbu narsalar nima ekanligi) sharh ma'lumotlari sifatida sanab o'tilgan.

Masalan: **PEOPLE IN THIS PART OF THE CITY WENT HOME EARLY.** Now and then you might see the lights of a shop or of a small restaurant. But most of the doors belonged to business places that had been closed hours ago (O'Henry "After twenty years") [4].

Yana xuddi o'sha muallif, O'Henryning "After twenty years" hikoyasida esa, birinchi jumlada fakt, ya'ni (shaharning ushbu qismidagi aholi allaqon uyga ketganligi) berilgan bo'lib, undan so'ng muallifning ushbu dalilga bo'lgan pozitsiyasi, munosobati shakllantirilgan.

Ushbu ko'rsatilgan ikki misol yordamida yuqorida murakkab sintaktik qurilmalarning birinchi jumalari haqida ko'rsatilgan fikrlarni ilmiy asoslashga erishdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ernest Hemingway "Cat in the rain". Posted on February 11, 2014 by Biblioklept
2. Halliday M.A.K., Matthiessen Ch. An Introduction to Functional Grammar. – Great Britain. Arnold, a member of the Hodder Headline Group. 2004. –689p.;
3. Loseva L. M. Kak stroitsya tekst. M., 1989. 94 s.
4. O'Henry "After twenty years"
5. O'Henry "The gift of the Magi"
6. Solganik G. Ya. Sintaksicheskaya stilistika. M., 1973. 214 s.
7. Zarubina N. D. K voprosu o lingvisticheskix yedinitsex teksta // Sintaksis teksta. M., 1979. S. 106.
8. Khamrayeva Z. COMPLEX SYNTACTIC WHOLE: PROSE STANZA //Международная конференция академических наук. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 83-86.
9. Xaydarovna X. Z. Means of correlation among sentences as a complex syntactic whole //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 440-443.